
Retsipient tafakkurida badiiy matnni idrok qilish jarayonining bosqichlari

Nasirova Gulnora Madaminovna
*Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

- Annotatsiya** *Maqolada badiiy matnni retsipient tomonidan idrok qilish jarayonining bosqichlari sakkiz qadamli algoritm asosida tahlil qilinadi. Jarayon quyidagi bosqichlardan iborat: reseptsiya, mazmuniy elementlarni faollashtirish, mazmuniy elementlarni birlashtirish, tasavvurlarni aniqlash, ularni kategoriyalash, esda qolarli belgilarni shakllantirish, qayta kategoriyalash va yakunda ma'no qurish. Tadqiqot metodologik asosi sifatida G.P. Shchedrovitskiyning sistem-mafkuraviy faoliyat metodologiyasiga tayanadi. Tadqiqot metodlari sifatida izohli metod, introspeksiya va interpretatsiya qo'llaniladi. Adabiyotlar tahlili jarayonning nazariy asoslarini ochib beradi, asarlardan keltirilgan misollar esa idrokning bosqichma-bosqich kechishini amaliy jihatdan ko'rsatadi. Natijada, maqola badiiy matnni idrok qilish murakkab va tizimli jarayon ekanligini, unda o'quvchi tafakkuri faol ishtirok etishini namoyon etadi. Shuningdek, maqolada til birliklari, obrazlar tizimi va majoziy qatlamlar o'quvchi ongida qanday assotsiatsiyalar uyg'otishi batafsil izohlanadi. Adabiyotshunoslikda idrok masalasi psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'rsatiladi. Shuningdek, o'quvchining estetik zavqi, ijodiy tafakkuri va hayotiy tajribasi ham ma'no qurilishida bevosita ishtirok etishi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuv o'quvchi va matn o'rtasidagi faol muloqotni mustahkamlaydi va badiiy asarning ko'p qirrali mohiyatini ochib beradi.*
- Kalit so'zlar** *Badiiy matn, reseptsiya, mazmuniy elementlar zaxirasi, mnemopattern, kategoriyalash, idrok jarayoni, introspeksiya*

Этапы восприятия художественного текста в мышлении реципиента

Насирова Гулнора Мадаминовна
*Доктор философии (PhD),
Узбекский государственный университет
мировых языков*

- Аннотация** *В статье анализируются этапы восприятия художественного текста в мышлении реципиента на основе восьмишагового алгоритма. Процесс включает: рецепцию, активизацию смысловых элементов, интеграцию смысловых элементов, усмотрение представлений, категоризацию представлений, формирование запоминающихся паттернов, их повторную категоризацию и, наконец, построение смысла. Методологической основой исследования выступает системо-деятельностная методология, разработанная Г. П. Щедровицким. В качестве методов применяются описательный анализ, интроспекция и интерпретация. Обзор литературы раскрывает теоретические основы восприятия, а примеры из художественных произведений показывают поэтапное протекание данного процесса. Результаты подчеркивают, что восприятие художественного текста является сложным системным процессом, в котором ключевую роль играет когнитивная активность читателя. Кроме того, статья*

акцентирует внимание на том, что восприятие определяется не только языковыми структурами, но и культурно-историческим опытом, психологическими факторами и эстетическими ожиданиями читателя. В работе рассматриваются подходы когнитивной лингвистики и герменевтики, которые объясняют, каким образом читатель соотносит текст с личными знаниями и интерпретативными стратегиями. Подчеркивается, что акт чтения является диалогическим процессом, в котором текст и читатель вступают во взаимодействие, открывающее новые горизонты смысла и интерпретации.

Ключевые слова Художественный текст, рецепция, активизация смысловых элементов, мнемонаттерн, категоризация, процесс восприятия, интроспекция

Stages of Literary Text Perception in the Recipient's Thinking

Nasirova Gulnora Madaminovna

Doctor of philosophy (PhD),

Philological sciences,

Uzbekistan state world languages university

Annotation *The article analyzes the stages of perceiving a literary text in the recipient's thinking through an eight-step algorithm. The process includes: reception, activation of semantic elements, integration of semantic elements, recognition of representations, categorization of representations, formation of memorable patterns, re-categorization, and ultimately, meaning-making. The methodological basis of the study is the system-activity methodology developed by G. P. Shchedrovitsky. Descriptive analysis, introspection, and interpretation serve as the main methods. The literature review provides the theoretical framework of perception, while examples from literary works illustrate how comprehension unfolds step by step. The findings demonstrate that literary text perception is a complex, systemic process where the reader's cognitive activity plays a decisive role in constructing meaning. Furthermore, the article highlights that perception is shaped not only by linguistic structures but also by psychological, cultural, and historical contexts that influence interpretation. Cognitive linguistics and hermeneutic approaches are also considered to show how readers mobilize prior knowledge, life experience, and aesthetic sensitivity when constructing meaning. The analysis underscores that the act of reading is dialogic in nature: it creates an interactive exchange between text and reader, allowing multiple layers of interpretation to emerge. This reveals literature as an inexhaustible source of meaning, open to diverse perspectives.*

Keywords *Literary text, reception, semantic elements, mnemonic patterns, categorization, perception process, introspection*

Kirish

Badiiy matnni o'qish va idrok etish jarayoni murakkab psixologik va kognitiv

faoliyat bo'lib, u o'quvchining shaxsiy tajribasi, bilim darajasi va tafakkur uslubi bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiy asar faqat

yoʻzuvchi tomonidan yaratilgan matn emas, balki oʻquvchi tafakkurida qayta quriladigan, maʼnolar bilan boyitiladigan hamda shaxsiy qabul jarayonida yangicha qiyofaga ega boʻladigan madaniy hodisa sifatida namoyon boʻladi. Shu bois, badiiy matnni oʻquvchi qanday idrok qilishi masalasi adabiyotshunoslik, psixolingvistika va kognitiv lingvistikaning kesishgan nuqtasida dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda.

Idrok jarayoni koʻpincha intuitiv ravishda kechayotgandek tuyulsa-da, aslida u aniq bosqichlarga ega boʻlgan tizimli faoliyatdir. Tadqiqotlarda bu jarayon sakkiz qadamlı algoritmi orqali izohlanadi: reseptsiya, mazmunıy elementlar zaxirasini faollashtirish, hamda uni integratsiyalash, tasavvurlarni aniqlash, ularni kategoriyalash, mnemopatternlarni shakllantirish, qayta kategoriyalash va yakunda maʼno qurish. Har bir bosqich oʻquvchi tafakkurida alohida kognitiv mexanizmlarni ishga soladi. Masalan, reseptsiya bosqichida matnni sezgi va diqqat orqali qabul qilish muhim boʻlsa, kategoriyalash bosqichida mavjud bilimlar bilan solishtirish va umumlashtirish jarayoni kechadi.

Bu jarayonni tahlil qilishda G. P. Shchedrovitskiy tomonidan ishlab chiqilgan sistem- faoliyat metodologiyasi asosiy tayanch sifatida qoʻllanadi. Mazkur yondashuv tafakkurni alohida psixik hodisa sifatida emas, balki faoliyatning tarkibiy qismi sifatida koʻrib chiqadi. Shu jihatdan, badiiy matnni idrok qilish ham faoliyatning maxsus turi boʻlib, u oʻquvchi tomonidan maʼno qurishga yoʻnaltirilgan ongli hamda noanʼanaviy fikrlash amallarini oʻz ichiga oladi.

Tadqiqot metodlari sifatida izohli metod, introspeksiya va interpretatsiya qoʻllanadi. Introspeksiya orqali oʻquvchi idrok jarayonidagi ichki fikrlash holatlarini qayd etishi mumkin, interpretatsiya esa matnning turli qirralarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu asosda, badiiy matnni idrok etish jarayoni nafaqat matnning til birliklari va syujetini anglash, balki maʼno qatlamlarini ochish, ramz va obrazlarni tushunish hamda ularni shaxsiy

tajriba bilan bogʻlash faoliyatini ham oʻz ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili

Badiiy matnni idrok qilish masalasi turli davrlarda adabiyotshunoslik, estetik tafakkur va lingvistik tadqiqotlarning markazida boʻlib kelgan. Avvalo, matn va retsipient oʻrtasidagi aloqani anglash, ularning oʻzaro taʼsir mexanizmlarini izohlash muammosi dolzarb boʻlib qolmoqda. Bu borada XX asr ikkinchi yarmidan boshlab matnni oʻquvchi faoliyati orqali talqin qilishga asoslangan nazariyalar keng yoyildi.

G.P. Shchedrovitskiy tomonidan ishlab chiqilgan sistem-faoliyat metodologiyasi idrok jarayonini tushuntirishda muhim oʻrin tutadi. Shchedrovitskiy tafakkurni alohida psixologik jarayon emas, balki faoliyatning bir turi sifatida koʻrib, uni tizimli va koʻp bosqichli hodisa sifatida tasvirlaydi (Shchedrovitsky, 1995). Bu yondashuv badiiy matnni oʻqish jarayonida ham oʻz ifodasini topadi, chunki retsipient har bir bosqichda faol ishtirok etib, maʼno qurishga faol kirishadi. Roman Ingardenning fenomenologik yondashuvi ham matnni idrok etish jarayonini tushunishda muhimdir. Unga koʻra, badiiy asar oʻzida "noaniq joylar"ni saqlaydi va ularni faqat oʻquvchi oʻz tafakkuri orqali toʻldirishi mumkin (Ingarden, 1973). Demak, matnning toʻliq mazmuni faqat retsipient tafakkurida yuzaga keladi. Umberto Eco (1979) matnni "ochiq asar" sifatida talqin qiladi va uning maʼnosi oʻquvchi tomonidan qayta quriladi. Eco nazariyasida oʻquvchi "faol hamkor" sifatida qatnashib, matnning mazmunıy imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu fikr idrok jarayonining bosqichma-bosqich kechishini, yaʼni reseptsiya, integratsiya, kategoriyalash va maʼno qurish kabi mexanizmlarni toʻliq tasdiqlaydi. Wolfgang Iserning Reader-Response nazariyasi ham shu yoʻnalishda muhim ahamiyat kasb etadi. Iser (1978) oʻquvchini matnning hamkor yaratuvchisi sifatida koʻrsatadi. Unga koʻra, matnning maʼnosi faqat oʻquvchi tafakkurida shakllanadi va idrok jarayoni maʼlum bosqichlarni bosib oʻtadi. Bu bosqichlarda

o'quvchi mavjud tajribasidan foydalanib, yangi ma'nolarni ishlab chiqadi. Yuri Lotmanning semiotik maktabi ham idrok jarayonini keng tushuntiradi. Lotman (1990) matnni "semiosfera"ning bir bo'lagi sifatida talqin qiladi va uni faqat madaniy kontekstda to'liq anglash mumkinligini ta'kidlaydi. Demak, retsipientning idroki shaxsiy tajribadan tashqari, ijtimoiy-madaniy omillar bilan ham chambarchas bog'liq. Zamonaviy kognitiv lingvistika va kognitiv poetika yondashuvlari ham badiiy matn idrokini yangicha ko'rib chiqmoqda. Masalan, Lakoff va Johnson (1980) tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi o'quvchi tafakkurida matnni tushunishda asosiy kognitiv mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, Semino (2008) kognitiv poetika doirasida o'quvchi matndagi metafora va obrazlarni idrok qilishda kognitiv sxemalardan foydalanishini ko'rsatadi.

Shuningdek, introspeksiya va interpretatsiya metodlari o'quvchi idrokini tahlil qilishda amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Rosenblatt (1994)ning transaksion nazariyasi matn va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv aloqani ochib beradi. Retcipient matndan o'ziga kerakli semantik birliklarni tanlaydi va ularni shaxsiy tajribasi bilan uyg'unlashtiradi.

Badiiy matnni o'quvchi (retsipient) tomonidan tushunish oddiy qabul qilish jarayoni emas, balki tafakkur va xotira faoliyatining murakkab tizimidir. Ushbu jarayonni sakkiz bosqichli algoritm sifatida tasvirlash mumkin.

1. *Reseptsiya*. Bu bosqichda retsipient matn bilan dastlabki tanishuvni amalga oshiradi. O'quvchi matnni ko'z orqali idrok qiladi, tovushlar va belgilarni sezadi, leksik birliklarni qabul qiladi. Reseptsiya – bu sezgi va diqqatning birlamchi faoliyati bo'lib, matnning tashqi shaklini anglashga xizmat qiladi. Masalan, asarni o'qishda syujetning boshlanishi, obrazlarning tasviri, muallif uslubining

o'ziga xosligi sezilib, dastlabki emotsional taassurot hosil bo'ladi.

2. *Mazmuniy elementlar zaxirasini faollashtirish bosqichi*. Bu bosqichda retsipient o'z xotirasi va bilimlarida saqlanayotgan mazmuniy elementlarni ishga soladi. Har bir o'quvchi o'zining madaniy, tarixiy va hayotiy tajribasiga tayanib, matndagi so'z va obrazlarni kontekstual ma'noda talqin qiladi. Masalan, tarixiy roman o'qilganda, kitobxon o'zidagi tarixiy bilimlarni faollashtiradi va matnni tushunishda ulardan foydalanadi.
3. *Mazmuniy elementlar zaxirasini integratsiyalash bosqichi*. Bu bosqichda yangi o'qilgan matn ma'lumotlari retsipient ongida mavjud bo'lgan bilimlar bilan uyg'unlashadi. O'quvchi yangi tasavvurlarni o'zining avvalgi bilimlari bilan solishtiradi va yaxlit ma'no tizimini yaratadi. Masalan, Dostoyevskiyning qahramonlari haqida o'qiganda, kitobxon ularni o'zining axloqiy tushunchalari bilan bog'lab, yangicha xulosalar chiqaradi.
4. *Tasavvurlarni aniqlash bosqichi*. Bu bosqichda matndagi obrazlar, ramzlar va syujet elementlari aniqroq shakllanadi. O'quvchi ongida voqealar va obrazlarning vizual, emotsional hamda assotsiativ ko'rinishi yuzaga keladi. Masalan, Jane Eyre bolaligidagi iztiroblarni o'qiyotgan kitobxon o'z tasavvurida jonli sahnalarni yaratadi.
5. *Tasavvurlarni kategoriyalash bosqichi*. Bu jarayonda tasavvurlar umumiy tushunchalar bilan bog'lanadi. Bitta obraz yoki voqea o'z davrining ijtimoiy, axloqiy yoki madaniy fenomenini ifodalovchi timsol sifatida kategoriyalashadi. Masalan, Qodiriy romanidagi Kumush obrazi faqat shaxsiy taqdir emas, balki milliy qadriyatlar va davr ayollari timsoli sifatida qabul qilinadi.
6. *Mnemopatternlar shakllanishi bosqichi*. Matnni o'qish jarayonida o'quvchi xotirasida ma'lum kognitiv va emotsional

andozalar hosil bo'ladi. Bu mnemopatternlar keyinchalik boshqa matnlarni idrok etishda ham yordam beradi. Masalan, Dostoyevskiyning qahramonlari bilan tanishgan o'quvchi "ayb va jazo" tushunchasini mnemopattern sifatida xotirasiga joylaydi.

7. *Mnemopatternlarni qayta kategoriyalash bosqichi.* Bu bosqichda retsipient ilgari shakllangan mnemopatternlarni yangilab, ularni yangi bilim va tajribalar bilan solishtiradi. Masalan, Tolstoy va Dostoyevskiy asarlarini o'qigach, kitobxon insoniy erkinlik va axloqiy tanlov mavzusini ikkala muallifning turli badiiy uslublarida qayta kategoriyalash imkoniyatiga ega bo'ladi.
8. Jarayonning eng muhim bosqichi – *o'quvchi matndan o'z xulosasini chiqaradi, shaxsiy va ijtimoiy darajadagi ma'no quradi.* Bu individual jarayon bo'lib, har bir retsipient o'z dunyoqarashiga mos ravishda yakuniy ma'noga ega bo'ladi. Masalan, "O'tkan kunlar" romanidan kimdir tarixiy xotira haqida xulosa chiqarsa, boshqasi insoniy muhabbat va fidoyilikni asosiy ma'no sifatida ko'rishi mumkin.

Ushbu algoritmning nazariy poydevori G.P. Shchedrovitskiy tomonidan ishlab chiqilgan sistem- faoliyat metodologiyasidir. Bu metodologiya tafakkurni mustaqil jarayon sifatida emas, balki faoliyatning tarkibiy qismi sifatida izohlaydi. Demak, matnni idrok qilish ham retsipient faoliyatining bir ko'rinishi bo'lib, unda sezgi, xotira, tafakkur va emotsiyalar birgalikda ishlaydi (Shchedrovitsky, 1995).

Bolalar adabiyoti namunalarini kitobxon tomonidan oddiy o'qish jarayonida emas, balki murakkab kognitiv faoliyat orqali o'zlashtiriladi. Matnni qabul qilish paytida dastlabki taassurotlar shakllanadi: bola kitobxon fantastik syujetni sezadi, qahramonlarning noodatiy xatti-harakatlarini qiziqish bilan kuzatadi. Masalan, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida oddiy hayotiy kontekstga

kutilmagan fantastik obraz qo'shilishi kitobxonda hayrat uyg'otadi. Bu jarayonda qabul qilingan dastlabki elementlar bolaning ongida avvaldan mavjud hayotiy tasavvurlar bilan aloqaga kirishadi. Keyingi bosqichda bu mazmuniy elementlar faollashib, bola o'zining shaxsiy tajribasidan kelib chiqib, matnni boyitadi. Karlson obrazini o'qigan bola uni o'z do'stlik tajribasi bilan solishtiradi, Mary Poppinsni uchratganda esa maktabdagi yoki oiladagi tarbiyachilar bilan taqqoslaydi. Bu assotsiatsiyalar matnning idrokini chuqurlashtiradi va obrazlarni jonlantiradi. Shuningdek, mazmuniy elementlar bir-biri bilan integratsiyaga kirishadi: fantastik voqelik bola uchun faqatgina xayol emas, balki hayotiy saboq tashuvchi timsollarga aylanadi.

Idrokning yana bir muhim bosqichi tasavvurlarni aniqlashdir. O'quvchi "Sariq devni minib"dagi devni oddiy ertak obrazidek emas, balki bola orzularining, qudrat va erkinlikka intilishning ramzi sifatida tushunadi. Karlson sho'xlik va mehrning, Mary Poppins esa intizom va mehribonlik uyg'unligining timsoliga aylanadi. Bu jarayon tabiiy ravishda qahramonlarni kategoriyalashga olib keladi: ular kitobxon ongida "sho'x shaddod do'st", "mehribon tarbiyachi", "fantastik yo'ldosh" kabi toifalarda mustahkamlanadi. Shu asosda esda qolarli belgilar shakllanadi. Karlsonning tom ustidagi uyi yoki Mary Poppinsning sehrli soyaboni bolaning ongida yorqin obraz sifatida qoladi. Bu belgilar keyinchalik boshqa tajribalar bilan bog'lanadi va mnemotik asosga aylanadi. Idrok davomida esa qayta kategoriyalash sodir bo'ladi: dastlab sho'x va mas'uliyatsiz ko'ringan Karlson oxirida sadoqatli do'st sifatida baholanadi, qat'iy tarbiyachi bo'lib ko'ringan Mary Poppins esa mehr va hayotiy donolik manbai sifatida qayta anglanadi. Natijada, idrok jarayoni o'zining eng muhim bosqichiga – ma'no qurishga yetadi. Bola kitobxon "Sariq devni minib" orqali orzularning hayotiy kuchini, "Karlson tomida yashaydi" orqali yolg'izlikni do'stlik orqali yengish mumkinligini, "Mary Poppins" orqali esa intizom va mehr uyg'unligining insoniy kamolotda muhim rol

o'ynashini tushunadi. Bu umumiy ma'no alohida obrazlardan yuqori turuvchi, bolaning hayotiy dunyoqarashiga singib ketuvchi qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Shunday qilib, bolalar adabiyoti asarlarini idrok qilish jarayoni sakkiz bosqichli algoritm asosida murakkab kognitiv faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu faoliyat o'quvchi tomonidan nafaqat qabul va tushunish, balki faol interpretatsiya, qayta baholash va ma'no yaratish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Idrok jarayoni matn va kitobxon ongining uzviy hamkorligi sifatida ko'riladi, bunda qahramonlar ramziy timsollarga aylanib, bola uchun axloqiy, estetik va ma'naviy saboq manbaiga aylanadi. Demak, bolalar adabiyoti nafaqat qiziqarli voqealar majmuasi, balki ma'naviy rivojlanishning kuchli vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Roald Dahlning "Matilda" asari shu jarayonni yorqin ko'rsatib beradi. Asarning bosh qahramoni Matilda oddiy qizaloq bo'lsa-da, uning kitoblarga, bilimga va adolatga bo'lgan intilishi uni tengdoshlardan ajratib turadi. Ushbu obraz idrok jarayonida o'quvchi ongida faqatgina qiz bolaning iste'dodi emas, balki bilim va erkinlikning ramzi sifatida shakllanadi.

Birinchi o'qishda kitobxon Matildaning ota-onasi tomonidan e'tiborsizlikka uchrashi va maktab muhitidagi adolatsizlikni qabul qiladi. Bu reseptsiya bosqichida shakllanadigan dastlabki taassurotdir. Keyinchalik mazmuniy elementlar faollashadi: bolalar Matildaning kitobxonlik odatini o'z hayotidagi tajribalar bilan taqqoslaydi, bilim olishga intilish ularning ongida o'z qadrini topadi. Matildaning kitoblarga bo'lgan mehr-muhabbati o'quvchi uchun bilimning qudratli kuch ekanligini ko'rsatadi. Mazmuniy elementlarning integratsiyasi natijasida, Matildaning qahramonligi oddiy bir qizaloq hayotidan kengroq ma'no kasb etadi: u jaholat va zo'ravonlikka qarshi bilim va adolat bilan kurashuvchi obrazga aylanadi. Bu bosqichda tasavvurlar aniqlanadi va kategoriyalanadi: ota-onasi – beparvolik ramzi, Tranchbull xonim – zo'ravonlik ramzi, Matilda esa bilim va irodaviy

kuch timsoli sifatida kitobxon ongida mustahkamlanadi. Natijada, esda qolarli mnemotik belgilar yuzaga keladi. Masalan, Matildaning kichkina yoshida ham murakkab kitoblarni mutolaa qilishi yoki zo'ravon ustozga qarshi o'z kuchini ko'rsatishi o'quvchi xotirasida chuqur iz qoldiradi. Bunday obrazlar keyinchalik boshqa tajribalar bilan uyg'unlashib, bola ongida bilim, adolat va erkinlikka oid tushunchalarning poydevorini mustahkamlaydi. Qayta kategoriyalash jarayonida kitobxon Matildani nafaqat qizaloq sifatida, balki bilimning qudratini ifodalovchi ramz sifatida baholay boshlaydi. Shu bilan u o'z hayotida bilim va o'qishga bo'lgan munosabatni qayta ko'rib chiqadi. Yakuniy ma'no qurishda esa asar bolaning tafakkurida "bilim kuchdir", "adolat g'alaba qiladi" kabi fundamental qadriyatlarni shakllantiradi. Shu tarzda, "Matilda" asari bolalar adabiyotini idrok etish algoritmining barcha bosqichlarini yorqin ko'rsatadi. U bola kitobxon ongida nafaqat adabiy qiziqish uyg'otadi, balki kognitiv rivojlanishga, shaxsiy qadriyatlarning shakllanishiga va hayotiy saboqlarning anglanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Badiiy matnni idrok qilish jarayoni oddiy qabul qilish emas, balki murakkab kognitiv faoliyat ekanligi tahlillar orqali aniq namoyon bo'ldi. Reseptsiya bosqichidan boshlab yakuniy ma'no qurishgacha bo'lgan sakkiz qadamli algoritm kitobxon tafakkurida turli mexanizmlarni ishga soladi: sezgi, xotira, assotsiatsiya, kategoriyalash va qayta baholash. Shchedrovitskiyning sistem-faoliyat metodologiyasi bu jarayonni izohlashda asosiy nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi, chunki u tafakkurni faoliyatning ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi. Ingarden, Eco, Iser va Lotman kabi nazariyotchilarning qarashlari esa matnni o'quvchi bilan hamkorlikda "yaratiladigan" hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tahlil jarayonida ko'rib chiqilgan asarlar – "Sariq devni minib", "Karlson tomida yashaydi", "Mary Poppins" va "Matilda" – bolalar

adabiyotining idrok mexanizmlarini amalda tasdiqlab berdi. Bu asarlarda qahramonlarning ramziy mohiyati va ular bilan bog'liq mnemotik naqshlar o'quvchi ongida mustahkamlanadi va qayta kategoriyalanadi. Yakunda bola kitobxon o'z shaxsiy tajribasi asosida ma'no quradi:

do'stlik, mehribonlik, bilim, adolat va orzular qadriyat sifatida shakllanadi. Demak, badiiy matnni idrok qilish – bu nafaqat estetik zavq manbai, balki shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni boyituvchi hamda tafakkurni rivojlantiruvchi jarayondir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Eco, U. (1979). *The Role of the Reader*. Bloomington: Indiana University Press.
2. Ingarden, R. (1973). *The Cognition of the Literary Work of Art*. Evanston: Northwestern University Press.
3. Iser, W. (1978). *The Act of Reading: A Theory of Aesthetic Response*. Baltimore: Johns Hopkins University Press.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
5. Lotman, Y. M. (1990). *Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture*. London: I.B. Tauris.
6. Rosenblatt, L. (1994). *The Reader, the Text, the Poem: The Transactional Theory of the Literary Work*. Carbondale: Southern Illinois University Press.
7. Semino, E. (2008). *Metaphor in Discourse*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Shchedrovitsky, G. P. (1995). *Selected Works*. Moscow: School of Cultural Policy.